

ERIX MARIYA REMARK, URUSH ZAHMATINI TOTGAN IJODKOR

Soatov Furkat Rahimnazarovich

O‘zDJTU “Roman-german tillari tarjimashunosligi” kafedrasi o‘qituvchisi

Tel.: +998900126273, E-mail: f.soatov@yahoo.de

ANOTATSIYA:

Ushbu maqolada nemis adabiyotining yetuk namayondasi E.M.Remarkning hayoti va ijodi, “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” hamda “Uch og‘ayni” asarlari qiyosi va tahlili yoritilgan.

АННОТАЦИЯ:

В данной статье рассказывается о жизни и творчестве Э.М.Ремарка и анализируются два произведения «На Западном фронте без перемен» и «Три товарища».

ANNOTATION:

This article describes the life and creation of E.M.Remarque and analyzes two works “All Quiet on the Western Front” and “Three Comrades”.

KALIT SO‘ZLAR: E.M.Remark hayoti va ijodi, G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q, Uch og‘ayni, 50 kunlik front, asarlar ketmaketligi (silsilasi)

КЛЮЧЕВОЕ СЛОВО: Жизнь и творчество Э. М. Ремарка, На Западном фронте без перемен, Три товарища, 50-дневный фронт, книги

KEYWORD: Life and work of E. M. Remarque, All Quiet on the Western Front, Three Comrades, 50-Day Front, books

Nemis adabiyoti yutuk namayondalaridan biri Erix Mariya Remark 1898-yil 22-iyun sanasi Germaniyaning Osnabruk shahrida tavallud topdi. Adib yosh umrini, yigirmaga to‘lar-to‘lmas, maktabni tamomlashi bilanoq Birinchi jahon urishida 50 kun fronda o‘tkazishga majbur bo‘ldi. Uning ushbu 50 kun davomida o‘tkazgan umri unga butun umr tinchlik bermadi va u boshidan o‘tkazgan kechinmalarini, qiyinchilik, zahmadlarni qog‘ozga tushirishga ahd qildi. Shu tariqa 1928-yil “Vossische Zeitung” ro‘znomasining sahifalarida o‘scha davr adabiyotiga noma’lum bo‘lgan Erix Mariya Remarkning “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani chop etila boshladi. Bir yil o‘tar-o‘tmas ushbu asar alohida kitob bo‘lib dunyo yuzini ko‘rdi.

Adib patsifist, deb tariflanadi. Shu sababli ham “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani 1930 yilda Gollivud kinomotogriflari tomonidan urushga qarshi asar sifatida suratga olingan. Afsuski Remark asarlari uning hayotligidayoq nemis natsistlari tomonidan “siyosatga qarshi va g‘oyasi puch” asar sifatida taqiqlangan va 1933 yilda ommaviy ravishda yoqib yuborilgan, adib esa Shveytsariyaga ketishga majbur bo‘ladi. 1938 yilda Germaniya fuqaroligidan

mahrum qilingan Remark AQSh fuqaroligini oldi va yozuvchi sifatida tan olindi va 1970-yil 25-sentaber sanasida Shveytsariyaning Locarno shahrida vafod etdi.

Adib hayotligida, "Orzular oshyoni" 1920, "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" 1929, "Ortga yo'l" 1931, "Uch og'aynilar" 1938, "Navbatdagi muhabbat" 1941, "Arc de Triomphe" 1946, "Umr uchquni" 1952, "Hayot-mamot" 1954, "Qora yodgorlik" 1956, "Arshga hiylang o'tmas" 1961, "Lissabon oqshomlari" 1962 kabi romanlarni yartadi. Remarkning 1930-yili "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q", 1937-yil "Ortga yo'l", 1938-yili "Uch og'aynilar", 1941-yili "Navbatdagi muhabbat", 1947-yil "Alangananayotgan muhabbat", 1948-yili Arc de Triomphe, 1955-yili "So'ngi Akt", 1957-yil "So'ngi imkon", 1958-yili "Hayot- mamot", 1971-yili "Lissabon oqshomlari", 1977-yil "Arshga hiylang o'tmas", 1988-yil "Qora yodgorlik" asarlari filmlashtirilib, omma e'tiboriga taqdim etildi. [I.1.]

Remark 1964-yil Osnabryuk shahrining Yutus Möser medali, 1967-yil Germaniya Federativ Respublikasining Buyuk Xoch ordeni, 1968-yil Ascona faxriy fuqarosi unvoni sohibiga aylandi. Bundan tashqari 1971-yilda Osnabryukdagi sobiq Karlsring Erich-Maria-Remark-Ring nomi bilan atala boshlanishi, 1995-yil tarixchi Toni Judt "Nyu-York universiteti Yevropa va O'rta Yer dengizi tadqiqotlari markazi"ning "Remark instituti" etib asos solishi, 1999-yilda asteroid (10119) Remark nomi bilan atalishi, 2017-yilda Osnabryukdagi Natruper Holzdag'i dastlabki qabulxona "Erich-Maria-Remark-Haus" deb o'zgartirilishiga asos bo'ldi.

"G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" roman dunyoning ko'plab tillariga, shu jumladan, 1929-yilning o'zidayoq ingliz tiliga "All Quiet on the Western Front" sarlavhasi ostida tarjima qilindi. O'zbek adabiyotida esa ilk bor 2001-yil «Jahon adabiyoti» jurnalining 5-6-sonlarida nashr etilgan bo'lib, alohida kitobcha shaklida 2004-yil «Yangi asr avlod» nashriyoti tomonidan Nizom Komilning rus tilidan tarjimasi asosida nashr etildi.

Asar "Bu kitob aynbnama ham, afvnama ham emas. Bu shunchaki urush dastidan juvonmarg bo'lgan avlod haqidagi, garchi zambarak o'qidan omon qolsa-da, shu urushning qurbaniga aylanganlar to 'g'risidagi ko'ngil izohidir" [A.1. 5 b.] sarlavhasi bilan boshlanib, qahramonlar Paul Boyerman va uning do'stlari frontda boshidan kechirgan yaxshi va yomon, og'ir kunlari, do'stlari Kemmerix Fransning ayanchli vafoti, kichik zabit Ximmelshatosning qo'l ostidagi askarlarga hayvonlarga qiladigan munosabatda qarashi, kasalxonalarda spirit va yiring hidiga chidab bo'lmasligi, shunday bo'lsa ham kasal o'rniga boshqa kasal navbatda turishi juda ta'sirchan tarzda yoritib beriladi.

"...Myuller Beshinchi, imtiyozli asosda imtihon topshirish orzusida hanuzgacha darsliklarni qo'ltilqlab yuradi, o'q do'lday yog'ilib turgan paytda ham fizika qonunlarini hijjalaydi..." [A.1.6 b] Asardagi ushbu qatordan ko'rinish turibtiki, ilm izlagan kimsa urushda ham izlanishini, tinchlik qadrini anglash kerak ekanini namayon.

Yana, "Shunisi qiziqli, dunyodagi jamiki balo-qazolar ko'pincha mana shunaqa pakana odamlardan chiqadi...", [A.1. 14 b.] deya Gitler hokimiyatiga urg'u bergandek bo'ladi.

Asar urushning qanchalik vahimkor ekanini yoritarkan, unda inson insonga o‘q uzishi, og‘ir yotgan do‘stining dardini emas, undan qoladigan poyabzali haqida o‘ylashi o‘qigan kitobxon daxshatga tushadi.

Remarkning “Uch og‘ayni” romani ham ayni “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romancing nisbiy davomi ekaniga amin bo‘ladi kishi.

“Uch og‘ayni” romani o‘zbek adabiyotiga rus tilidan tarjimon Nizom Komil tomonidan XX-asrning 50-yillari kirib keldi. [A.2.] Asar qahramoni Lokapf va uning ikki do‘sti o‘rtasidagi qalin do‘stliq, sababi ular urishda ham birga xizmat qilishgani, asar qahramoning go‘zal Patritsiyaga bo‘lgan muhabbatni, ichki kechinmalari, roman so‘ngida yosh Patning ayanchli vafoti va Lokapfning ayriliq azobi yoritiladi.

Roman nafaqat asar qahramonlari his-tuyg‘ulari, ichki kechinmalari va hayoti haqida, balki hayot falsafasi haqida ham mulohaza yuritishga sabab bo‘ladi. Masalan, “- Rostini aystsam, yer yuzida yurib, u haqda hech narsa bilmaslik uyat. - Xafa bo‘lma, ...yer yuzida nima uchun yurganimizni bilmasligimiz undanda uyatliroq” [A.2.] yoki bo‘lmasa “Hayot haqida o‘ylaganingda dilgir bo‘lsan, ammo odamlar hayotni nimaga aylantirib yuborganini ko‘rganiningda sorbet bo‘lishing turgan gap” [A.2.] iboralari kishini ancha o‘yga solidi.

Qisqa qilib aytganda, Erix Mariya Remark birinchi jahon urishidan so‘ng Germaniyadagi yuzaga kelgan ijtimoiy muhitni kata mahorat bilan tasvirlagan buyuk yozuvchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. E.M.Remark. G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q. Yangi asr avlod, 2022
2. E.M.Remark. “Uch og‘ayni” roman. Ma’naviyat shar., 2002. So‘z boshi.
3. Mynona: Hat Erich Maria Remarque wirklich gelebt? Der Mann. Das Werk. Der Genius. 1000 Worte Remarque. Steegemann, Berlin 1929.
4. Alfred Antkowiak: Erich Maria Remarque. Leben und Werk. Volk und Wissen, Berlin 1965
5. Heinz Ludwig Arnold (Hrsg.): Remarque. München 2001
6. Franz Baumer: E. M. Remarque. In: Köpfe des XX. Jahrhunderts, Band 85. Berlin 1976.
7. Werner Fuld, Thomas F. Schneider (Hrsg.): Sag mir, dass Du mich liebst. Erich Maria Remarque – Marlene Dietrich. Zeugnisse einer Leidenschaft. Kiepenheuer & Witsch, Köln 2001
8. Julie Gilbert: Erich Maria Remarque und Paulette Goddard. Biographie einer Liebe. List, München 1997

Foydalanilgan Internet manbalari:

1. https://de.wikipedia.org/wiki/Erich_Maria_Remarque#Werke
2. https://n.ziyouz.com/books/jahon_nasri/Erix20Mariya20Remark
3. Wikiquote: Erich Maria Remarque – Zitate
4. Literatur von und über Erich Maria Remarque im Katalog der Deutschen Nationalbibliothek

5. Werke von und über Erich Maria Remarque in der Deutschen Digitalen Bibliothek
6. Zeitungsartikel über Erich Maria Remarque in der Pressemappe 20. Jahrhundert der ZBW – Leibniz-Informationszentrum Wirtschaft
7. Erich Maria Remarque-Gesellschaft e. V.
8. Erich Maria Remarque-Friedenszentrum

